

GLOBAL VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

Toirov Ilhomjon Ibrohimjon o'g'li

Farg'onasi viloyati O'zbekiston tumani aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktab -internati biologiya fani o'qituvchisi

Akhmedova Sug'diyona Sultanovna

Farg'onasi viloyati O'zbekiston tumani aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktab -internati 11- "B" sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada global muammolar haqida va nima uchun aynan shular muammoga aylanib bormoqda, oldini olish uchun nima qilish kerak, ularning paydo bo'lishiga nima sabab bo'lganligi haqida yozilgan. Shu bilan birga energetika muammosining dolzarbligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, tabiiy landshaft, dunyo okeani, eroziya, qo'riqxona, Qizil kitob, ozon qatlami, energetika, termoyadro, dunyoviy, mintaqaviy, mahalliy muammolar.

GLOBAL AND ECOLOGICAL PROBLEMS

Toirov Ilhomjon Ibrohimovich

Fergana region, Uzbekistan district, boarding school specialized in natural sciences, biology teacher

Akhmedova Sugdiyona Sultanovna

Student of 11th grade "B" boarding school specialized in exact and natural sciences, Fergana region, Uzbekistan district

Abstract: In this article about global problems and why they are becoming problems, what to do to prevent, written about what caused them to appear. At the same time, the urgency of the energy problem was discussed.

Key words: Ecology, natural landscape, the ocean of the world, erosion, reserve, red book, ozone layer, energy, thermonuclear, worldly, regional, local problems.

1.Kirish. Global muammolar deb shunday muammolarga aytildiki, ular ko'lamni jihatidan butun dunyo, butun insoniyatni qamrab olib, uning hozirgi va kelajagi uchun xavf tug'diradi, hamda o'zlarining yechimi uchun barcha davlatlar va xalqlar kuchlarining birlashushi, birgalikda jipslashib harakat qilishini talab etadi.

Global muammolar soni taxminan 40-50 ta bo'lib , ular ichida eng asosiy muhimlari 9 ta(1-rasm):[1]



1-rasm.Insoniyatning global muammolar.

Konstitutsiyamizning 50-moddasida „Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”- deb belgilab qo‘yilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, atrof-muhitga bo‘lgan munosabat bosh qomusda ham keltirib o‘tilgan.

Ekologik muammo XX asrning 40 yillardan boshlab tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi “modda almashinushi” ko‘plab marta o‘sdi hamda global miqyosga yetdi. Yer yuzidagi bir qancha mamlakat va regionlarda ekologik vaziyat juda tanglashib ekologik tanazzulni (inqirozni) yuzaga keltirdi. Ekologik muammolar taranglashgan hududlar: Reyn–Rur aglomeratsiyasi, yuqori Sileziya va Evropaning bir qator sanoat rayonlarida, Buyuk ko‘llar bo‘yida, Sansan megapolisida, Tokaydo megapolisida, Xitoyda, Rossiyaning muhim sanoat rayonlarida atmosfera, gidrosfera, litosfera jiddiy zararlandi.[2]

2.Asosiy qism. Global muammolar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak ularning katta qismi aynan ekologiya va atrof-muhitga bog‘liq ekanini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Ozon qatlaming yemirilishi, chuchuk suv miqdorining keskin kamayib

ketishi, shimol va janubiy qutb muzliklarining erishi, buning oqibatida dunyo okeani sathining bir necha metr ko‘tarilishi, okean suvlarining sho‘rlanishi, noyob hayvon turlarining yo‘qolib ketish darajasida kamayib ketganligi, tabiiy landshaftlar o‘z qiyofasini o‘zgartirganligi, havoning ifloslanishi(masalan, sanoat yetakchi o‘rin egallagan davlatlarda atmosferaning karbonat angidrid gazi bilan to‘lganligi). Xitoyda yoz oylarida qizil rangdagi qor yog‘ishi, Hindistonning Mumbay shahridagi havo tarkibidagi zararli moddalarning kislorod miqdorga qaraganda ko‘p bo‘lishi.

Hayvonot olami, o‘simplik dunyosi ushbu ko‘rsatkichlarda kamayib boradigan bo‘lsa, kelajak avlod jonli tabiatni ko‘ra olmasligi mumkin. Dunyo hamjamiyati ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun barcha imkoniyatlarni amalga oshirmoqda.

Inson tirik organizmlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etib yoki yashash sharoitini o‘zgartirib, uning tarqalishiga yoki qirilib yo‘q bo‘lishiga sababchi bo‘lishi mumkin. Inson tabiatga ko‘rsatadigan kuchli ta’siri orqali abiotik va biotik sharoitlarni o‘zgartiradi. Inson million yil davomida tarkib topgan tirik dunyo manzarasini bir necha o‘n yilda o‘zgartirib yubordi. Uning tirik organizmlarga salbiy ta’siri natijasida Yer yuzida ko‘plab o‘simplik va hayvonot turlari yo‘qolib ketdi.[2]

Rivojlanayotgan mamlaklarda oziq–ovqat muammosi eng ayanchli hatto fojiyaviy xususiyatga ega. Ocharchilik, qoloqlik va kambag‘allik mahsulidir. Hozirda 70 dan ortiq rivojlanayotdan mamlakatlar oziq–ovqatni faqat chetdan keltiradi. To‘yib ovqat emaslik va ochlik bilan bog‘liq kasalliklar, toza suv etishmasligi natijasida rivojlanayotgan mamlakatlardan yiliga 40 mln odam dunyodan o‘tadi. Uning 18 mln.i bolalardir.[4]

Aholi o‘sar ekan uning talab va ehtiyojlari oshib boradi. So‘nggi 25 yil ichida dunyoda ko‘mirga bo‘lgan talab 2 marta, temir rudasiga 3 marta, neft va gazga bo‘lgan talab 6 marotaba, marganes, kaliy, fosfor tuzlariga talab 2-3 marotaba oshgan. Har yili 150 mlrd tonna mineral xomashyo qazib olinmoqda. Tabiiy jarayon oqibatida daryolar, dengiz, okeanlarga har yili 15 mlrd tonna tog‘ jinslarini oqizib kelinmoqda, 3-4 mlrd tonna chiqindi gazlar atmosfera havosiga ko‘tarilmoqda.[4]

Jamiyatning ta’lim olish va intelektual potensialini o‘sishini ta’minlovchi sharoit yaratilgan bu tabiatga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi. Tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan, bu unumli foydalanish va tabiatga ko‘p miqdorda zarar bermaslikni ta’minlaydi. Maxsus muhofazaga olingan hududlarni boshqarish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Qizil kitob, Qo‘riqxonala rbunga misol bo‘ladi. Atrof-muhitni ifloslanish manbalarini aniqlash bo‘yicha nazorat tizimini takomillashtirilgan va rivojlantirilgan. Maishiy chiqindilar qayta ishlash orqali ifloslanish qisqargan.[1]

Dunyo okeanidan oqilona foydalanish muammosi. Ma’lunki dunyo okeani yer yuzasining 71 % ni egallagan. Dunyo okeani xazinalar konidir. Okeanning asosiy boyliklari quydagilar:

- okean suvida 75 xil kimyoviy elementlarni ayniqsa tuz, yod, magniy, brom kabilarning uchrashi.
- okean shelfi mineral resurslarga boyligi ayniqsa neft va gazga.
- okeanni energetika resurslariga ya’ni qalqish energiyasiga boyligi.
- okeanni biologik resurslari yani suvda yashovchi hayvonlar va o’simliklarga boyligi.[1]

Xususiylashtirish jarayonlarida ekologik talablarga rioya qilish va atrof-muhitga zarar keltirmaslik uchun javobgarlik va nazorat qilish mexanizmini yaratish ustuvor qilib belgilangan. Xalq xo‘jaligining turli sohalarida ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni zararsizlantirish va o‘zlashtirish bo‘yicha ilmiy-texnik ishlanmalmalarni hayotga tadbiq etish, hamda ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishni davom ettirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Atrof-muhitni muhofazsi, tabiiy resurslardan foydalanish masalalari bo‘yicha hamjamiyat ekologik tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va birgalikda ekologik qarorlar qabul qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda.[1]

Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo‘nalishlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan Atrof- muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha milliy harakat rejalarini va strategiyalarida o‘z aksini topgan. Qo‘riqxonalarda har bir tabiiy mintaqa, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, manzara, relyef shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim noyob turlar va hayvonlar saqlanib qolinadi.

Global muammolardan biri energetika muammosi. Birinchi navbatda insoniyatni energiya bilan ta’minalash va uni hal etish kerak. Energetika muammosi birinchi marta xx asrning 70- yillarda arzon neft davrining tugashi bilan boshlandi. Garchi neft yana tushib ketgan bo‘lsada, yoqilg‘i va energiya bilan ta’minalash global muammosi saqlanib qolmoqda. Global energetika muammosining paydo bo‘lishining asosiy sababi mineral yoqilg‘i iste’moli tabiatning, ko‘pincha yerning ichki qismidan qazib olish hajmining ko‘payishi va betartib qazib olish deb hisoblayman. 1960-1980-yillarda yer ostidan ko‘mirning 40%, neftning deyarli 75%, gazning 80% ga yaqin qismi qazib olindi. Arzon yoqilg‘i davrida dunyoning aksariyat mamlakatlarida juda ko‘p resurs talab qiladigan iqtisodiyot rivojlangan. Bu birinchi navbatda, mineral resurslarga eng boy mamlakatlar AQSH, Kanada, Avstraliya, Xitoy yalpi ichki mahsulot birligiga Sovet ittifoqiga nisbatan ancha ko‘p yoqilg‘i sarflangan.[3]

G‘arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari energiyani tejash yo‘lida eng katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Juhon energetika inqirozi boshlanganidan keying dastlabki 10-15 yil ichida ularning yalpi ichki mahsulotining energiya sig‘imi 1/3 ga kamaydi, jahon yoqilg‘i va energiya iste’molidagi ulushi 60% dan 48% gacha pasaydi.

1991-2000-yillarda rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha yillik o‘sish surati 2,4% ni an’anaviy energiya resurslari iste’moli 1,22 % ni tashkil etdi.

Yaqin vaqtlargacha yoqilg‘i xomashyolari faqat maxsus maqsadlar uchun mo‘ljallangan edi, masalan, kosmik tadqiqotlar. Ammo hozirda ularni kengroq qo‘llash bo‘yicha ishlar ko‘plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda olib borilmoqda, ular orasida Yaponiya birinchi o‘rinni egallaydi. Mutaxasislarning fikriga ko‘ra, ularning dunyodagi umumiy quvvati hozirda millionlab kilovattlarda o‘lchanadi. Tokio va Nyu-Yorkda yonilg‘i hujayrasi elektr stansiyalari qurilgan. Germaniyaning „Daimler-Benz“ kompaniyasi esa yonilg‘i hujayrasi dvigateliga ega avtomobilning ishchi prototipini yaratishga muvaffaq bo‘lgan dunyodagi birinchi avtomobil konserni bo‘ldi. Rossiya birlamchi energiya resurslarining umumiy iste’moli (1,2 trillion tonna) bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. O‘rganilgan neft zaxiralari unga 55 yilga, tabiiy gaz 85 yilga yetadi. Bundan tashqari o‘rganilmagan boyliklari ham mavjud. XXI asr boshlarida Rossiyada YaIMning energiya zichligi AQSHga nisbatan 2,5 baravar va g‘arbiy Yevropaga nisbatan 3,5 baravar yuqori edi. Bundan kam isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaydigan energiya siyosatiga o‘tish, ilmiy-texnikaviy inqilob yutuqlaridan to‘g‘ri foydalanish zarurati tug‘iladi. Buning o‘ziga xos misoli: 2016-2030-yillarda loyihalashtirilgan va 2050-yilga kelib sanoat termoyadro elektr stansiyasini yaratishni yakunlash rejalashtirilgan. Termoyadro energiyasining asosiy manbai Jahon okeanining suvlarida to‘plangan. Ilmiy tadqiqot mutaxasislari termoyadro energiyasini amalda tugamaydi deb hisoblashadi. Faqat geotermal, quyosh, shamol energiyalari inson qo‘li bilan yaratilgan. Energetika muammosining yechimi, ko‘pchilik mutaxasislar fikricha, asosan 2ta yo‘nalishdagi harakatlar bilan bog‘liq: energiyani tejaydigan texnologiyalarning amaliyotga keng joriy etilishi hamda quyosh energiyasi, shamol, qalqishlar, geotermal energiya, bioyoqilg‘i singari noan’anaviy energiya manbalaridan foydalanishga bosqichma –bosqich o‘tish.[3]

3.Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tabiatni asrash har birimizning qo‘limizda, agar munosib fuqaro bo‘lib o‘z hissamizni qo‘sksak albatta kelajak avlod uchun ham jonli tabiat va foydali resurslar saqlab qolinadi. Tabiat barcha narsani hazm qilishi mumkin, biroq uning sog‘lom muhiti yo‘qolishi muqarrar. Demak atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirimiz o‘zimizni kelajakdagi hayotimizni shakllantirib beradi.

Dunyoviy muammolar o‘zining kelib chiqishi, mazmuni va mohiyatiga ko‘ra xilma-xil ekanligini ko‘rib chiqdik va bu muammolarni o‘rganadigan fan globalistika deb ataladi. Muammolarni proqnoz qilish o‘z navbatida 3ga ya’ni sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliyga bo‘linadi. Sayyoraviy proqnozlar ma’lum bir hududga bog‘lanmagan bo‘lib, geografik qobiq doirasidagi, butun insoniyatga daxldor muammolarga bag‘ishlanadi. Sayyoraviy geografik proqnozlarning asosiy maqsadi insoniyatning kelajakdagi hayotini va Yerni saqlab qolishga qaratilgan muammolarni oldindan proqnoz qilishdir. Mintaqaviy proqnozlar biron mintqa doirasida bir nechta

davlatlarga daxldor muammolarning kelajakdagи o‘zgarishini oldindan asoslab berishga qaratiladi. Ma’lum bir muhandislik inshooti yoki inshootlar guruhining tabiiy muhitga ta’sirini oldindan asoslab berish mahalliy geografik prognoz deb ataladi. Tabiatga ta’sir etadigan muhandislik inshootlari sanoat korxonasi, suv ombori, shaxtalar, yo’llar, aerodromlar, shaharlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Masalan, foydali qazilma koni ochiq usulda qazib olinadigan bo‘lsa, hududda botiq hosil bo‘ladi, tashlamalar vujudga keladi, yer osti suvlari sathi pasayadi, noxush jarayonlar rivojlanadi, suv, tuproq, o’simlik va hayvonot dunyosi ma’lum joylarda butunlay yo‘qoladi, ma’lum bir joylarda esa katta o‘zgarishlarga uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Rafiqov, Q.N.Abirqulov, A.N.Xojimatov Ekologiya O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, Toshkent 2004
2. P.Baratov Tabiatni muhofaza qilish „O‘qituvchi” Toshkent 1991
3. В.П.Максаковский. Географическая картина мира. Кн. I: Общая характеристика мира. Москва, Дрофа, 2008. ст.454-465
4. P.Baratov, A.Soato Umumiy tabiiy geografiya „O‘qituvchi” Toshkent 2005